
AN'ANAVIY "HOKIM KUBOGI"; JADVALI TAQDIM ETILDI



Ana'naviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Farg'ona viloyati hokimi kubogi" musobaqasining o'yinlar taqvimini va jadvali e'lon qilindi.

Unga ko'ra, ushbu galgi musobaqada 12 ta jamoa g'oliblik uchun kurash olib boradi. Farg'ona viloyatidan "Neftchi U-21", Turon U-21, "Qo'qon-1912", "Sementchi" hamda "FarDU" jamoalari qatnashadi. Uchrashuvlar Farg'ona shahridagi "To'qimachi" va Quvasoy shahridagi "Sementchi" stadionlarida bo'lib o'tishi ko'zda tutilgan.

Aziz Alijonov boshchiligidagi "Neftchi U-21" jamoasi musobaqaning A guruhidan o'rin egalagan. Guruhimizda Andijonning "Andijon U-21", Zominning "Zomin" va Toshkentning "Lokomotiv U-21" jamoalari raqobatchilik qilishadi.

Musobaqaning ochilish uchrashuvi 25 yanvar kuni "To'qimachi" stadionida "Neftchi U-21" va "Lokomotiv U-21" jamoalari o'rtasida kechadi. O'yin soat 11:00da boshlanadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-23 10:09:46